

**O‘QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV SALOHİYATI VA KASBIY RIVOJLANISH O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK****Rasulova Maftuna Nasimboy qizi**

Samarqand pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi,  
Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: [rasulovamaftuna110@gmail.com](mailto:rasulovamaftuna110@gmail.com)

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0009-0655-4593>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘qituvchilarning kommunikativ salohiyati va kasbiy rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqotda kommunikativ salohiyatning tarkibiy komponentlari (motivatsion, kognitiv va faoliyatli) hamda ularning o‘qituvchining kasbiy rivojlanish jarayoniga ta’siri ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, pedagogik kommunikatsiyaning samaradorligi, interaktiv yondashuvlarning ahamiyati va reflektiv faoliyatning roli ochib berilgan. Tadqiqot natijalari kommunikativ salohiyatni rivojlantirish o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirishning muhim omili ekanligini ko‘rsatadi hamda mazkur jarayonni takomillashtirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.

**Kalit so‘zlar:** kommunikativ salohiyat, pedagogik kommunikatsiya, kasbiy rivojlanish, kommunikativ kompetensiya, refleksiya, interaktiv metodlar, pedagogik faoliyat, kasbiy kompetensiya.

**THE INTERRELATIONSHIP BETWEEN TEACHERS’ COMMUNICATIVE COMPETENCE AND PROFESSIONAL DEVELOPMENT**

**Abstract.** This article examines the theoretical and practical aspects of the interrelationship between teachers’ communicative competence and their professional development. The study analyzes the structural components of communicative competence (motivational, cognitive, and behavioral) and substantiates their impact on the process of teachers’ professional growth. Particular attention is given to the role of pedagogical communication, the effectiveness of interactive approaches, and the significance of reflective practices in enhancing communicative capacity. The findings indicate that the development of communicative competence serves as a key factor in improving teachers’ professional competence and highlight the necessity of designing methodological approaches aimed at optimizing this process.

**Keywords:** communicative competence, pedagogical communication, professional development, teacher competence, reflection, interactive methods, professional growth, educational process.

## **ВЗАИМОСВЯЗЬ КОММУНИКАТИВНОГО ПОТЕНЦИАЛА УЧИТЕЛЕЙ И ИХ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ**

**Аннотация.** В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты взаимосвязи коммуникативного потенциала учителей и их профессионального развития. Рассматриваются структурные компоненты коммуникативного потенциала (мотивационный, когнитивный и деятельностный) и их влияние на процесс профессионального роста педагога. Особое внимание уделяется роли педагогической коммуникации, эффективности интерактивных методов и значению рефлексивной деятельности. Результаты исследования подтверждают, что развитие коммуникативного потенциала является важным фактором повышения профессиональной компетентности учителей и обосновывают необходимость совершенствования методических подходов в данном направлении.

**Ключевые слова:** коммуникативный потенциал, педагогическая коммуникация, профессиональное развитие, коммуникативная компетентность, рефлексия, интерактивные методы, педагогическая деятельность.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy faoliyati mazmuni tubdan yangilanib, u nafaqat bilim beruvchi, balki ta'lim jarayonini samarali tashkil etuvchi, kommunikativ jarayonlarni boshqaruvchi hamda o'quvchilar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yuvchi subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan qaraganda, o'qituvchilarning kommunikativ salohiyati ularning kasbiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning kommunikativ salohiyati pedagogik faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Samarali pedagogik kommunikatsiya o'quvchilar bilan ijobiy psixologik muhitni shakllantirish, ta'lim jarayonini interaktiv tashkil etish hamda o'quvchilarning faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, kommunikativ salohiyat o'qituvchining refleksiv faoliyatini rivojlantirish, kasbiy o'sish strategiyalarini shakllantirish va innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etishda ham muhim omil hisoblanadi. Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning kommunikativ salohiyati va ularning kasbiy rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yetarli darajada kompleks va tizimli yondashuv asosida o'rganilmagan. Aksariyat tadqiqotlarda ushbu ikki jarayon alohida-alohida tahlil qilinib, ularni integratsiyalashgan metodik tizim sifatida ko'rib chiqish masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur holat quyidagi ilmiy

muammoni yuzaga keltiradi: o'qituvchilarning kommunikativ salohiyatini rivojlantirish orqali ularning kasbiy rivojlanish jarayonini samarali tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Shundan kelib chiqib, mazkur maqolaning maqsadi o'qituvchilarning kommunikativ salohiyati va kasbiy rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida kommunikativ salohiyatning tarkibiy komponentlari aniqlanadi, ularning kasbiy rivojlanishga ta'siri asoslanadi hamda ushbu jarayonni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'qituvchilarning kommunikativ salohiyati va ularning kasbiy rivojlanishi muammosi zamonaviy pedagogika fanida dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida keng o'rganilmoqda. Mazkur masala doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetensiya o'qituvchining kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotlarda kommunikativ kompetensiya tushunchasi dastlab lingvistik va sotsiolingvistik yondashuvlar asosida shakllangan bo'lib, u shaxsning turli ijtimoiy vaziyatlarda samarali muloqot olib borish qobiliyatini ifodalaydi. Jumladan, Canale va Swain kommunikativ kompetensiyani lingvistik, sotsiolingvistik va strategik komponentlar yig'indisi sifatida talqin etib, uni samarali kommunikatsiyaning nazariy asosi sifatida asoslab bergan [2]. Ushbu yondashuv keyinchalik pedagogik faoliyatga moslashtirilib, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qarala boshlandi.

Spitzberg va boshqa tadqiqotchilar kommunikativ kompetensiyani shaxsning muloqot jarayonida maqsadga muvofiq va ijtimoiy jihatdan maqbul xatti-harakatlarni amalga oshirish qobiliyati sifatida izohlaydi [6]. Ushbu yondashuv pedagogik faoliyatda o'qituvchining kommunikativ strategiyalarni to'g'ri tanlashi, o'quvchilar bilan samarali aloqani yo'lga qo'yishi va pedagogik vaziyatlarni boshqarish qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi masalasi ham pedagogika fanida keng yoritilgan. Xususan, Darling-Hammond va Avalos kabi olimlar o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini uzluksiz, tizimli va refleksiv jarayon sifatida talqin etib, unda hamkorlik, tajriba almashish va o'z-o'zini rivojlantirish muhim omillar ekanligini ta'kidlaydi [1], [3]. Ularning fikricha, samarali kasbiy rivojlanish o'qituvchining nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki kommunikativ faoliyatini ham takomillashtirishni nazarda tutadi.

Mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida ham o'qituvchilarning kommunikativ madaniyati va pedagogik mahoratini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, pedagogik mahorat o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining integral ko'rsatkichi sifatida talqin qilinib, unda kommunikativ faoliyat muhim o'rin

egallashi ta'kidlanadi [5]. Shuningdek, pedagogik faoliyat samaradorligi o'qituvchining muloqot olib borish qobiliyati, nutq madaniyati va o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarni to'g'ri tashkil etishiga bevosita bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Fayzullayeva pedagogning kommunikativ kompetentligini o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar va rahbariyat bilan pedagogik odob hamda muloqot talablariga muvofiq ravishda tashkil etiladigan kommunikativ faoliyat sifatida talqin etadi [4].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ salohiyatni rivojlantirish o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Samarali kommunikatsiya o'qituvchining reflektiv faoliyatini kuchaytiradi, pedagogik muammolarni hal etish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, interaktiv metodlar, treninglar va reflektiv yondashuvlar o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vosita sifatida qaraladi.

Biroq mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning kommunikativ salohiyati va kasbiy rivojlanish jarayoni ko'pincha alohida-alohida o'rganilgan bo'lib, ularning o'zaro integratsiyasi va tizimli bog'liqligi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Xususan, kommunikativ salohiyatni kasbiy rivojlanishning metodik tizimi bilan uzviy bog'lash, uning tarkibiy komponentlarini kasbiy o'sish indikatorlari bilan integratsiyalash masalalari chuqur ilmiy asosga ega bo'lgan tadqiqotlarni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, o'qituvchilarning kommunikativ salohiyati va kasbiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks va tizimli yondashuv asosida o'rganish, mazkur jarayonni takomillashtirishga qaratilgan metodik yechimlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari o'qituvchilarning kommunikativ salohiyati va kasbiy rivojlanishi o'rtasida uzviy va o'zaro bog'liq munosabat mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, kommunikativ kompetensiyaning rivojlangan darajasi o'qituvchining pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish bilan birga, uning kasbiy o'sish sur'atlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Bu holat mavjud ilmiy qarashlar bilan hamohang bo'lib, kommunikativ kompetensiya pedagogik faoliyatning asosiy determinantlaridan biri sifatida namoyon bo'lishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, kommunikativ salohiyatning kognitiv komponenti — ya'ni kommunikativ bilimlar tizimi — o'qituvchining pedagogik vaziyatlarni to'g'ri anglash va mos kommunikativ strategiyalarni tanlashida muhim rol o'ynaydi. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Faoliyat komponenti esa kommunikativ salohiyatning eng muhim amaliy ko'rinishi sifatida namoyon bo'lib, o'qituvchining real pedagogik vaziyatlarda

samarali muloqot olib borish qobiliyatini ifodalaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aynan ushbu komponentning rivojlanganligi o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyat darajasini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Shuningdek, tadqiqot natijalari kommunikativ salohiyatni rivojlantirishda interaktiv metodlar va refleksiv yondashuvlarning yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Rolli o'yinlar, treninglar va muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'qituvchilarning nafaqat kommunikativ ko'nikmalarini, balki ularning kasbiy fikrlash darajasini ham rivojlantiradi. Bu esa pedagogik jarayonni modernizatsiya qilishda kommunikativ yondashuvning muhimligini yana bir bor asoslaydi.

Biroq, tahlillar davomida ayrim muammoli jihatlar ham aniqlandi. Xususan, ko'plab o'qituvchilarda kommunikativ salohiyatning refleksiv komponenti yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatildi. Bu esa ularning o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Mazkur holat pedagogik tayyorgarlik tizimida refleksiv faoliyatni rivojlantirishga yetarli e'tibor qaratilmayotganligini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, kommunikativ salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni tizimli ravishda joriy etish zaruriyati yuzaga keladi. O'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus metodik tizim ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish kasbiy rivojlanish samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari kommunikativ salohiyat va kasbiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham asoslab berdi. Bu esa mazkur yo'nalishda keyingi ilmiy izlanishlar olib borish hamda metodik tizimni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari o'qituvchilarning kommunikativ salohiyati va kasbiy rivojlanishi o'rtasida uzviy va o'zaro bog'liqlik mavjud ekanligini ko'rsatdi. Kommunikativ salohiyatning motivatsion, kognitiv va faoliyatli komponentlari o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Aniqlanishicha, pedagogik kommunikatsiyaning samarali tashkil etilishi, interaktiv metodlardan foydalanish hamda refleksiv faoliyatni rivojlantirish o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish jarayonini faollashtiradi va uning samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, kommunikativ salohiyatning rivojlanganligi o'qituvchining pedagogik faoliyatdagi muvaffaqiyati, o'quvchilar bilan samarali muloqot olib borishi va ta'lim jarayonini samarali tashkil etishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari o'qituvchilarning kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni tizimli ravishda takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi. Mazkur jarayonda kommunikativ kompetensiyani

rivojlantirishga yoʻnaltirilgan treninglar, interaktiv metodlar va refleksiv faoliyatni qoʻllash muhim ahamiyatga ega. Oʻqituvchilarning kommunikativ salohiyatini rivojlantirish ularning kasbiy rivojlanishini taʼminlovchi muhim pedagogik omil boʻlib, ushbu yoʻnalishda ilmiy asoslangan metodik tizimlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish taʼlim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar roʻyxati.**

1. Avalos, B. (2011). Teacher professional development in Teaching and Teacher Education over ten years. *Teaching and Teacher Education*, 27(1), 10-20. <https://doi.org/10.1016/j.tate.2010.08.007>
2. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative competence. *Applied Linguistics*, 1(1), 1-47.
3. Darling-Hammond, L., Hyler, M. E., & Gardner, M. (2017). *Effective teacher professional development*. Palo Alto, CA: Learning Policy Institute.
4. Fayzullayeva G. Oʻqituvchi–oʻquvchi munosabatlarida oʻqituvchining kommunikativ koʻnikmalarini rivojlantirish // “Oʻqituvchining kasbiy standarti, amaliyotga tatbiq etish va istiqboldagi vazifalar” mavzusidagi respublika ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, 2021. – B. 215-217.
5. Ishmuhamedov, R., & Yuldashev, M. (2017). *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. Toshkent.
6. Spitzberg, B. H. (2000). What is good communication? In G. R. Miller & M. Roloff (Eds.), *Handbook of interpersonal communication* (pp. 375–410). Sage Publications.